

## BADIY ASAR TARJIMASIDA QO'SHISH VA TUSHIRIB QOLDIRISH TRANSFORMATSIYALARIDAN FOYDALANISH

*Choriyev Abdurahmon Ilhom o'g'li*

TerSU student. +998958866604,

[abdurahmonchoriyev701@gmail.com](mailto:abdurahmonchoriyev701@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlar duch keladigan qiyinchiliklar, xususan, qo'shish va tushirib qoldirish kabi transformatsiya shakllari hamda ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi.

**Annotation:** This article discusses the challenges translators face during the process of translation of literary works, specifically focusing on additions and omissions as forms of transformation, as well as their solutions.

**Kalit so'zlar:** Qo'shish, tushirib qoldirish, "The adventures of Tom Sawyer", "The adventures of Sherlock Holmes", tarjima transformatsiyalari.

**Key words:** Additions, omissions, "The adventures of Tom Sawyer", "The adventures of Sherlock Holmes", translation transformations.

Badiiy asarlarni tarjima qilish – bu murakkab ijodiy jarayon bo'lib, unda tarjimon asl matnning mazmunini saqlagan holda uni tarjima tiliga yetkazishi kerak. Ushbu jarayonda tarjimaning turli xil transformatsiya shakllari qo'llaniladi, ulardan biri – qo'shish va tushirib qoldirish hisoblanadi. Avvalambor qo'shish va tushirib qoldirish transformatsiyalariga izoh berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Qo'shish – ba'zan tarjima matniga leksik birliklarni qo'shishga to'g'ri keladi, bunga sabab asl matn tilidagi ma'no-mazmunni o'quvchiga to'la-to'kis yetkazib berish maqsadida bu ishlar amalga oshiriladi. [1.B31] Masalan, hozir tarjimonlar badiiy asarlar tarjima qilish jarayonida duch kelgan ba'zi muammolar va o'sha muammolarga qanday yechim topilganligi to'g'risida misollar beriladi:

„I may be the biggest fool in Europe! But I may have the key to the mystery now. Will you come with me?”

„So where is the key?”

„In the bathroom,” he answered, but added nothing more and closed the front door behind us. [2.B37]

“Balki men Yevropadagi eng kata masqarabozdirman, lekin men hozir jumboqni kalitini topdim. Men bilan borasanmi?”

“Kaliti qayerda?”

“Vanaxonada” u javob berdi, ammo bundan boshqa hech narsa **aytmadi** va biz oldi eshikdan chiqib kettik.

Tahlil: bu tarjima jarayonida “**aytmadi**” so’zi qo’shildi bunga sabab yuqoridagi gapni to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilsak ma’noviy g’alizlik paydo bo’lar edi va o’quvchi asarni o’qish jarayonida tushunmovchilikka duch kelar edi, shu sababli “**aytmadi**” so’zini qo’shish orqali yuqoridagi g’alizlikni yo’qotishga harakat qildik.

Bundan tashqari Katarzyna Duda tomonidan qayta yozilgan Sir Arthur Conan Doylening “The adventures of Sherlock Holmes” asarida tarjimonlar duch keladigan shunga o’xshash muammolar va ularga keltirilgan yechimlardan misollar keltirishimiz mumkin. Masalan:

It was Monday morning and he was going to school. It was late, but Tom wasn’t in a hurry. When he saw Huckelberry Finn, he stopped:

‘Hello, Huck!’. [3.B14]

Dushanba kuni ertalab u maktabga borayotgan edi. Kech bo’lishiga qaramay, Tom shoshilmayotgan edi. U Huckelberry Finni ko’di **va** to’xtadi:

“Salom, Huck!”

Tahlil: yuqoridagi tarjima jarayonida so’z takrorlanishining oldini olish maqsadida “**va**” bog’lovchisini qo’shdik.

Tushirib qoldirish – tushirib qoldirish qo’shishga qarama-qarshi bo’lgan hodisadir. Tarjima jarayonida ko’pincha semantika (ma’no)si jihatidan ortiqcha bo’lgan so’zlar tushirib qoldiriladi. Asl matndagi bunday so’zlarning ma’nolarini tarjima matnidan ularsiz ham tushunib olish mumkin. [1.B33]

Misol uchun:

‘Well, you take your cat,’ said Huck. ‘And at night you go to the graveyard where somebody bad was buried. About midnight the devil will come, but of course you won’t see him. And then you say:

„Devil **follow** the dead man, cat **follow** the devil, warts follow the cat.”

That will take any warts off you’. [3.B14]

“ Yaxshi, mushugingni ol” dedi Huck. “ Va tunda qabristonga yomon odam ko’milgan joyga bor. Tahminan yarim tuda shayton keladi, lekin albatta sen uni ko’rmaysan. Keyin sen aytasan:

“ Shayton o’lik odamning, mushuk shaytonning, so’gallar esa mushukning ortidan boringlar”.

Bu sendan barcha so’gallarni olib tashlaydi.”

Tahlil: bu misolda so’z takrorining oldini olish maqsadida asl matnda qayta-qayta qo’llanilgan “**follow**” so’zini tarjima matnida tushirib qoldirdik.

When Tom was entering **the school** classroom, **he** was already half an hour late.

‘Thomas Sawyer!’ said the teacher when he saw Tom. ‘Come here. **Now**, why are you late again?’. [3.B15]

Tom sinfxonaga kirganda, allaqachon yarim soatga kech qolgan edi.

“Thomas Sawyer!” dedi o’qituvchi Tomni ko’rganda. “Biyoqqa kel. Nega yana kech qolding?”.

Tahlil: bu parchada ortiqcha so’zlar ham bor ya’ni u so’zlarni tarjima qilmasdan ham asl matn mazmunini tarjima matnida o’quvchiga yetkazib berish mumkin, shu sababli “**the school**” va “**Now,**” so’zlarini tarjima matnida tushirib qoldirdik. Bundan tashqari, bu parchada takroriy so’zlarni qo’llashdan qochish maqsadida “**he**” olmoshini ham tushurib qoldirdik.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida ma’no va mazmun jihatidan muqobillikka erishish maqsadida, tarjimon qo’shish va tushirib qoldirish kabi tarjima transformatsiyalaridan foydalanishiga to’g’ri keladi. Zero, tarjima matnining badiiy bo’yoqdorligi, tarjimaning o’quvchiga to’liq mazmunda yetkazib berilishi ushbu jarayonlarni talab qiladi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Allayorova.R.R, Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Urganch-2008.
- Katarzyna Duda, retold version of the book by Sir Arthur Conan Doyle, The adventures of Sherlock Holmes, Mediasat Poland Bis 2004.
- Anna Paluchowska, retold version of the book by Mark Twain, The adventures of Tom Sawyer, Mediasat Poland Bis 2004.
- Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
- Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
- Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.
- Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. Philological research: language, literature, education, 4(4), 73-76.
- Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8)(30). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
- Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN’S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
- Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel “matilda” into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
- Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
- Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT’S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.